

KOSTYUMBOB GAZLAMA TO‘QISHDA “ELASTAN” IPLARIDAN FOYDALANIB SHAKLDOR YUZALI MATO OLISH

Yakubov Nosirjon Jurayevich¹

¹ *Farg‘ona davlat texnika universiteti, Yengil sanoat muhandisligi kafedrası, katta o‘qituvchi, E-mail: n.yakubov@ferpi.uz*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 16.06.2025

Revised: 17.06.2025

Accepted: 18.06.2025

KALIT SO‘ZLAR:

elastan ip, arqoq, tanda, to‘qimachilik, mato, jatka gazlamasi, burama

Maqolada ustki yuzasi bezak shaklli gazlamalarni ishlab chiqarishning yangi bir usuli taklif etilgan va uni shu turdagi mavjud materiallar bilan fizik-kimyoviy, hamda mexanik xususiyatlari taqqoslangan. Taklif qilingan materialni avfzalliklari va iqtisodiy tomonlari ko‘rib chiqilgan.

KIRISH. Ustki qismi bezak (g‘ijimlanganga o‘xshahs) shaklli gazlamalarni ishlab chiqarishda ko‘p hollarda eshilishlar soni (pishitilishi) yuqori bo‘lgan iplardan foydalanib kelinadi [1]. Bunga misol qilib ipak tolali iplardan to‘qilgan krepdeshinni va paxta ipli maxsus gazlamalarni aytishimiz mumkin.

Bunday gazlamalarga bozorda talab yetarli bo‘lganligi uchun, tannarxi qimmat bo‘lishiga qaramay to‘qimachlik sanoatimizda ishlab chiqarib kelinmoqda. Odatda iplarni to‘qish jarayoniga tayyorlash jarayonida iplarni eshilish miqdorini me‘yordan ortiq buram beriladi. Bu jarayon natijasida iplar defarmatsiyalanuvchan ya‘ni (cho‘zilib-qaytuvchan) bo‘lib qoladi. Aynan shu xususiyatidan foydalanilgan holda to‘qish uchun tanda iplari tayyorlanayotganda tanda g‘altagiga iplar tarang holda o‘raladi. Bizga ma‘lumki to‘qish jarayonida ham tanda iplari tarang holda tutib turiladi. Bundan kelib chiqadiki to‘qish jarayonidan o‘tgan iplar deformatsiyalanishi natijasida qisqaradi. Natijada gazlama yuzasi huddi g‘ijimlangan singari shakllar hosil qilib tortiladi. Kostyumlar uchun ipakdan yoki ingichka paxta iplaridan to‘qilgan gazlamalardagi bunday shakllar haridorlar tomonida bezak sifatida qabul qilinadi. Undan tashqari ushbu gazlamalardan tikilgan kiyimlar

ekspluatatsion ta'sirlarga chidamli gigienik jihatdan ancha avzalliklarga ega bo'ladi. Albatta gazlamani bu kabi hususiyatlari gazlamani haridorgirligini ta'minlaydi.

Yengil sanoatda bu turdagi gazlamalarning bir necha hillari ishlab chiqariladi, ularga misol qilib quydagilarni keltirishimiz mumkin, yani

-“Jatka gazlamasi”- bu "G'ijim" deb ataladigan ma'lum bir hususiyatga ega bo'lgan istemolda keng tarqalgan material. U xaotik burmalari va ko'p sonli burmalari bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, undan yaxshi tikilgan buyum ko'rimsiz yoki tartibga keltirilmagan va yoqimsiz ko'rinmaydi, aksincha bu burmalar kiyimga ijobiy estetik ko'rinish beradi. (1-rasm)



1-rasm. Jatka gazlamasi

- Crinkle mikrofiber (shuningdek, shaftoli mikrofiberi sifatida ham tanilgan) sun'iy ravishda burmalangan va taxlamlardan iborat mato bo'lib, unga g'ijimlangan teksturani beradi. Bu mato yumshoqligi, chidamliligi, namlikni singdirish va issiqlikni saqlash hususiyati tufayli ko'pincha matras qoplamalari va yotoqxona choyshablari uchun ishlatiladigan birinchi raqamli sintetik mato hisoblanadi.[2] (2-rasm)



2-rasm. Crinkle mikrofiber gazlamasi

Ushbu shakldor azlamalarni ishlab chiqarishdagi asosiy kamchiligi yoki tannarxini qimmatlashtiruvchi asosiy sabab gazlama iplariga qo'shimcha ravisha buramalar sonini berishdir, ya'ni qo'shimcha burama berish uchun avvalo energiya, vaqt hamda moddiy harajatlar oshib ketishini kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari iplardagi buramalar sonini ortishi natijasida ularni yo'g'onlashishiga olib kelishi tufayli to'qilayotgan gazlamalar nisbatan qalinlashib qolish ehtimolini ham ko'rish mumkin.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etib yuzasi shaklli gazlamalarni olishda yangi bir usuldan ham foydalanishini tavsiya qilamiz. Buning uchun biz tanda ipini tayyorlashda oddiy ya'ni qo'shimcha buramalar berilmagan ip yoki ipaklardan foydalanishni tavsiya qilishimiz mumkin. Faqat bu usulda tanda iplarini tayyorlash jarayonida 15%-20% miqdorida "elastan" iplaridan foydalanamiz. Ya'ni tanda iplari zichligi bo'ylab har beshinchi ipini "elastan" ipiga almashtiramiz. Tanda ipi tayyorlash jarayonida "elastan" iplari tanda g'altagi tarang holda o'ralishi zarur bo'ladi. Ushbu tayyorlangan tanda g'altagidagi iplaridan foydalanib tayyorlangan gazlamada, to'qish jarayonida arqoq ipi tashlangandan so'ng gazlama o'ramiga o'tgan matoda tarang holda to'qilgan "elastan" iplari qisqarishga uchraydi.[3] Tabiiyki buni natijasida tanda ipi yo'nalishida qisqarishga uchramagan tanda iplari gazlama yuzasiga buklangan holda bo'rtib chiqadi. O'z-o'zidan bu bo'rtiklar shakldor gazlamalar kabi biz to'qigan gazlama yuzasida ham shakllar hosil qiladi. Yana shuni ta'kidlashimiz mumkinki bu shakllar oldingi gazlamadagidan ko'ra ingichkaroq va maydaroq ko'rinish hosil qiladi. Bunday ko'rinish gazlamani yanada jozibadorligini oshiradi[4]. Eng muhimi foydalanilayotgan iplarga qo'shimcha burama berilmasligi natijasida tannarx pasayadi, ishlab chiqarish surati oshadi va gazlamamiz nisbatan yupqaroq holga keladi.(3-rasm)



3-rasm. Yangi turdagi gazlama ko'rinishi.

Xulosa: Ayni paytda yengil sanoat to'qimachilik korxonalarida yuzasi shakldor gazlamalarni to'qish uchun tanda iplarini olishda majburiy ravishda iplarga qo'shimcha buramlar berish zarur bo'ladi. Buni natijasida iplarni tannarxi va nisbiy yo'g'onligi ortib ketadi. Biz tavsiya qilayotgan usulda ip tayyorlashdagi bunday jarayonlardan voz kechiladi. Uni o'rniga qoshimcha ravishda "elastan" iplaridan foydalandik. Natijada gazlama yuzasida hosil bo'lgan bo'rtma shakllar nisbatan mayinlashib, gazlamamiz jozibadorligi ortadi. Bundan tashqari gazlama yupqalashadi, muhimi gazlamamiz tannarxi pasayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimova X.A., Usenko V.A "Ipakni eshish" –Toshkent Sharq nashryoti 2001-yil.
2. Alimov, S.. *Tekstil materiallari va ularning sifati*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2021-yil
3. Rasulov, I. & Mirzayeva, D. (2022). *Kostyumbop matolar: Innovatsiyalar va ishlab chiqarish texnologiyalari*. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiya nashriyoti. 2022-yil
4. Ochilov T.A. va boshqalar,. To'qimachilik materiallarini sinash. «O'zbekistan», T., 2004-yil